



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 4, 2025**

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //  
ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //  
LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION**

<i>Abdurahmonova M.</i> Urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar .....	3
<i>Jumaniyazov M.</i> “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb” asarida fe‘llar va yuklamalarning tushum kelishigi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlari .....	11
<i>Tadjixujjaeva F.</i> Семантический анализ персидского соматизма جان <i>jān</i> «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои.....	20
<i>Иванова А.</i> Невербальные компоненты коммуникации в китайском языке: лингвокультурологический аспект.....	28
<i>Hou Yanli., Zhu Xingfei.</i> Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People .....	37
<i>Qodirova D.</i> Vyetnam tilidagi “cái” [ <i>kai</i> ] va “con” [ <i>kon</i> ] hisob so‘zlarining qiyosiy tahlili.....	46
<i>Davlatov Z.</i> Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usulixususida .....	55

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //  
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //  
SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY**

<i>Madraimov A., Eshmurodov B.</i> Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari .....	61
<i>Pulatova M.</i> Arba‘inlarda kur‘oni karim va hadis ma‘nolarining aks etishi .....	69
<i>Elimov L.</i> G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida Amir Temur davlatining vujudga kelishi haqida.....	80

**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //  
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //  
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS**

<i>Alimov O.</i> Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy megatrendlar: mintaqaviy integratsiyaning xalqaro-siyosiy va institutsional jihatlari .....	95
<i>Kasimov M.</i> Pokiston-Hindiston-Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta‘siri.....	98
<i>Bo‘ronov S.</i> Qo‘shqepa kanalining markaziy osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta‘siri ....	109
<i>Turdiyeva D.</i> Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today .....	114
<i>Абдулхаев А.</i> Влияние международных санкций на развитие китайско-иранского стратегического партнерства .....	123



## ARBA'INLARDA KUR'ONI KARIM VA HADIS MA'NOLARINING AKS ETISHI

**MALOHAT PULATOVA**

*Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU*

*ORCID ID: 0009-0000-8171-0271*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qur'on va hadislar matni atrofida yuzaga kelgan sharh va izohlar yozish an'ansi "Arba'in" asarlar – qirq hadis to'plamlarini vujudga keltirganligi asoslangan. Arba'inlar nasr va nazmda yozilgan bo'lib, Qur'on oyatlari va hadislar mazmunini o'z ichiga olganligi va Arba'inlarda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun arab va fors, turkiy tillarda ko'plab hikoyat, rivoyat, naqlar keltirilganligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zi:** Arba'in (qirq hadis), Qur'on va hadislar, sharh va izohlar, islom adabiyoti, nasr va nazm, rivoyat va hikoyatlar an'anasi, arab, fors va turkiy tillar

**Abstract:** This article substantiates that the tradition of writing commentaries and explanations around the texts of the Qur'an and Hadith led to the emergence of Arba'in works—collections of forty hadiths. The Arba'ins were written in both prose and verse, incorporating the meanings of Qur'anic verses and hadiths. It is also analyzed that, in order to substantiate the theoretical material presented in the Arba'ins, numerous stories, legends, and narratives in Arabic, Persian, and Turkic languages were cited.

**Keywords:** Arba'in (Forty Hadiths), Qur'an and Hadith, commentary and interpretation, islamic literature, prose and poetry, narrative traditions, arabic, persian, and turkic languages.

**Аннотация:** В данной статье обосновано, что традиция написания комментариев и толкований вокруг текстов Корана и хадисов привела к возникновению произведений жанра «Арба'ин» — сборников сорока хадисов. Арба'ины создавались как в прозе, так и в поэтической форме, включали в себя содержание коранических аятов и хадисов. Также проанализировано, что для доказательства излагаемого в арба'инах теоретического материала приводилось множество рассказов, преданий и повествований на арабском, персидском и тюркских языках.

**Ключевые слова:** Арба'ин (сорок хадисов), Коран и хадисы, комментарии и толкования, исламская литература, проза и поэзия, повествовательные традиции, арабский, персидский и тюркские языки

Islom dini o'z taraqqiyoti va butun sharq hududiga keng va chuqur kirib borishi natijasida islom mintaqa madaniyati doirasidagi xalqlarning tafakkurini ma'naviy qadriyatlar asosida birlashtirib, mohiyatan barcha musulmon xalqlari uchun yagona bo'lgan yaxlit madaniyatni, xususan yaxlit falsafa, ilm fan, badiiy adabiyotni shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Din insonlarning ma'naviy poklanishi, axloqiy tarbiyasi, insoniy komilligi, hayot zarbalariga qarshi kurashidagi tayanchi, xalqlar va millatlar ma'naviy



boyligi va boy madaniyatining ajralmas bir bo‘lagi, inson ijtimoiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi hisoblangan. Din inson ma’naviy shakllanishida uning tabiatida chuqur ildiz otgan insoniy yetuklik va barkamollik, insonparvarlik me’yorlaridan biridir. Islom turmush tarzining dunyo taraqqiyparvar ommasi tomonidan madaniy meros, keng tarqalayotgan va rivojlanib kelayotgan e’tiqod sifatida tan olinishi, musulmon madaniyati rivojining, yoki boshqacha istiloh bilan aytadigan bo‘lsak, “islom uyg‘onishi”, “islom fenomeni”, “islom sivilizatsiyasi” kabi turli atamalar bilan nomlanayotgan hodisaning progressiv rivojlanish xususiyatlarini o‘zida jamlaydi. Har qanday diniy e’tiqod kabi, islomiy e’tiqod ham inson ruhiy kamoloti va qalb yetukligi bilan bog‘liq holatdir. O‘z tarixiy rivojlanishi jarayonlarida musulmon madaniyati odamlar uchun sof gumanitar xususiyatlarga, jumladan poklik va halollikka, bag‘rikenglik va tinchlikka, oilalar ravnaqi va butunligiga umid va ishonchni kuchaytiradi.

Mazkur yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ichida islom adabiyoti va uning Sharq adabiyotiga ta’siri masalalari alohida e’tiborga loyiq. Shunga ko‘ra, islom dini va boy madaniyatining badiiy tafakkur va uning milliy adabiyotlarga ta’siri tarixiy hodisa bo‘lib, mazkur ijobiy ta’sir islom dini targ‘iboti vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan. Islom dini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida islom omilining vujudga kelishi uchun xizmat qilgan.

Sharq falsafasi va madaniyatining shakllanishida Qur‘on va hadislar asosiy manbalar sifatida qaraladi. Hadislar inson ma’naviyati, hayot tarzi va falsafiy qarashlarini belgilovchi muhim omil bo‘lsa, Qur‘on ularning mazmunini to‘g‘ri anglash uchun asosiy metodologik tayanch hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida Qur‘on va hadislarini nafaqat diniy, balki madaniy va falsafiy manba sifatida ham tadqiq qilib kelganlar.

Diniy adabiyot, ayniqsa muqaddas manbalarda bildirilgan fikr, qarash va g‘oyalarga ergashish ikki shakl ko‘rinishida mavjud bo‘ladi.

Biri, muqaddas manbalarni sof diniy yo‘nalishda tushuntirish, ikkinchisi – muqaddas manbalarni sof adabiy yo‘nalishda tushuntirishdir.

Birinchi yo‘nalishda, muqaddas manbalarga ergashish asosida kommentariylar, ya’ni ularga sharhlar yozish, diniy adabiyotda ularni tafsir istilohi bilan ataydilar, ular – asosan sof teologik adabiyotga kiritiladi. Tafsir so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham bevosita ko‘rib chiqilayotgan mavzuga to‘g‘ri keladi, ya’ni u “farasa” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuntirish”, “maqsadni namoyon qilish”, “pardani ko‘tarish” ma’nolarini anglatadi<sup>1</sup>. Qur‘on oyatlarini sharhlash ilmi islomda “ilm al Qur‘an va at-tafsir” nomi bilan atalgan. Qur‘onga sharhlar islom dini tarixida juda katta ahamiyat kasb etib, islom doktrinasini va uning g‘oyalarining shakllanishiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Islom doktrinasini – Qur‘on va Sunnatga asoslangan holda shakllangan, musulmonning e’tiqodi,

<sup>1</sup>Ислам. Энциклопедический словарь. - М.: Наука, 1991.



amaliy faoliyati va axloqiy kamolini belgilab beruvchi kompleks diniy-huquqiy va falsafiy ta'limot bo'lib, Qur'on ma'nolarini to'liq bilgan inson – Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dir. Qur'on ma'nolarini ilk bor o'zgalarga tushuntirib bergan odam ham Muhammaddir. Sharq falsafasi va madaniyatining shakllanishida Qur'on va hadislar asosiy manbalar sifatida qaraladi. Hadislar inson ma'naviyati, hayot tarzi va falsafiy qarashlarini belgilovchi muhim omil bo'lsa, Qur'on ularning mazmunini to'g'ri anglash uchun asosiy metodologik tayanch hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida Qur'on va hadislarini nafaqat diniy, balki madaniy va falsafiy manba sifatida ham tadqiq qilib kelganlar.

Qur'on va hadislarining bir biriga mutanosibli shundaki, Qur'on - Allohning kalomi, oxirat va dunyo hayoti bo'yicha muqaddas ta'limot, hadislar – Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning so'zlari, amallari va tasdiqlari bo'lib, Qur'ondagi o'g'itlar va ta'limlarni amalda qanday qo'llashni ko'rsatadi. Ularning uyg'unligi shundan iboratki, hadislar Qur'onga zid bo'lmasligi va hadislar Qur'onda berilgan ta'limlarni kengaytiradi yoki sharhlaydi.

Masalan:

Qur'onning baqara surasi 153-oyatida aytiladi:

إِنَّ اللَّهَ مَعَ الصَّابِرِينَ

“Alloh sabr qiluvchilar bilan birga bo'ladi”<sup>1</sup>.

va yana:

Qur'onning Anfol surasi 46-oyatida ham

إِنَّ اللَّهَ مَعَ الصَّابِرِينَ

“Alloh sabr qiluvchilar bilan birga bo'ladi” deyiladi.

Hadislarda esa, Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday deydi:

وَمَنْ يَتَصَبَّرْ يُصَبِّرْهُ اللَّهُ<sup>2</sup>

“Sabr qilgan kishi mukofotlanadi”<sup>3</sup>

va yana:

وَمَنْ يَتَصَبَّرْ يُصَبِّرْهُ اللَّهُ، وَمَا أُعْطِيَ أَحَدٌ عَطَاءً خَيْرًا وَأَوْسَعَ مِنَ الصَّبْرِ<sup>4</sup>

“Kim sabr qilishga urinib yashasa, Alloh unga sabrni ato etadi. Hech kimga sabrdan ko'ra kengroq va yaxshiroq ne'mat berilmagan”

Hamda

إِنَّ عِظَمَ الْجَزَاءِ مَعَ عِظَمِ الْبَلَاءِ، وَإِنَّ اللَّهَ إِذَا أَحَبَّ قَوْمًا ابْتَلَاهُمْ، فَمَنْ رَضِيَ فَلَهُ الرِّضَا، وَمَنْ سَخِطَ فَلَهُ السُّخْطُ<sup>5</sup>

“Alloh bandasini yaxshi ko'rsa, uni sinovga soladi. Kim sabr qilsa – Allohning roziligi bor, kim norozi bo'lsa – g'azabi bor”.

<sup>1</sup> Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari. –“ O'qituvchi ”. Toshkent –B.23.

<sup>2</sup> Ал-Жомеъ ас-саҳих. — Байрут: Дор Ибн Касир, 1987.

<sup>3</sup> Imom Muslim riviyati. Shihul Muslim. –“ Darus Salom ”. Riyod –B. 243.

<sup>4</sup> Ал-Жомеъ ас-саҳих. — Байрут: Дор Ихё ат-Турос ал-Арабий, 1991.

<sup>5</sup> Сунан Ибн Можа. — Байрут: Дор ал-Фикр, 1995.



Ko‘rinadiki, Qur‘on oyatlari umumiy qoidani bayon qilsa, hadislar oyatning fazilatini, mohiyatini, o‘rnini sharhlab beradi va hadis Qur‘on ta‘limini amalda tasdiqlaydi.

Qur‘onning chuqur o‘rganilishi hadislarning mohiyatini anglashda zaruriy shartlardandir. Masalan, Imom al-Buxoriy (810–870) o‘zining mashhur “Al-Jome‘ as-Sahih” asarida hadislarni Qur‘on asosida tekshirish va tasdiqlash zarurligini ta‘kidlagan. Shuningdek, Abu Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy kabi allomalar ham hadislarni Qur‘on bilan uyg‘un holda sharhlashga katta e‘tibor berganlar. Bu yondashuv hadislarning nafaqat diniy, balki falsafiy va axloqiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, arba‘in janri ham ikki muqaddas manbaga asoslanishi tabiiydir.

Islom dini tarixi va Qur‘onning kitobat qilinishi an‘anasi bilan bog‘liq ravishda, islom aqidalarini targ‘ib va tashviq etish vazifasidan kelib chiqqan holda ularga kommentariylar yozish avvalo diniy yo‘nalishda bo‘lib, ilk tafsir asarlaridan Ibn Jarir at-Tabariyning “Jomi‘ al-bayon” asari vujudga kelgan<sup>1</sup>. Chunki, ularning ma‘nolarini keng ommaga tushuntirish ehtiyoji juda baland bo‘lgan. Ibn Jarir at-Tabariyning “جامع البيان عن تأويل آيات القرآن” – “Tafsir at-Tabariy” asari: asari ilk bor XX asr boshlarida, xususan 1902–1903 yillarda Qohirada Bulaq matbaasida to‘liq holda nashr qilingan.

Islom dinining ilk davrlarida Qur‘oni Karimning nozil bo‘lishi, uni saqlash, kitobat qilish va avlodlarga aniq yetkazish vazifasi birinchi navbatda aqidaviy barqarorlik va dinni targ‘ib qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shu nuqtai nazardan, Qur‘on matni atrofida yuzaga kelgan tafsir, sharh va izohlar avvalo diniy yo‘nalishda vujudga kelgani tabiiy holdir. Chunki, Islom aqidalarini to‘g‘ri anglatish va noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish zarurati mavjud edi. Turli madaniy va til muhitlariga islom ta‘limotini yetkazish uchun matnni sharhlash ehtiyoji kuchaydi. Yangi musulmon mintaqalarida e‘tiqodiy savollar ko‘payib, ularga ilmiy javob berish talab etildi.

Mazkur jarayonda Qur‘onni sharhlash an‘anasi faqat matnni izohlash bilan cheklanib qolmay, islom aqidasi mustahkamlash, uni himoya qilish va ommalashtirish vazifasini ham bajargan. Shu ma‘noda, dastlabki kommentariylar ya‘ni tafsirlar fiqhiy yoki falsafiy emas, balki asosan aqidaviy-diniy maqsadga xizmat qilgan. Keyinchalik esa islom ilmiy an‘anasining rivojlanishi bilan mazkur kommentariylar fiqhiy, kalomiy, lug‘aviy, mantiqiy, falsafiy yo‘nalishlarga ajrala boshladi.

Ulardan:

Qur‘oni Karim nozil bo‘lgan davrdanoq uning ma‘nolarini to‘g‘ri anglash ehtiyoji yuzaga kelgan. Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. Qur‘on oyatlarini

1. الطبري، محمد بن جرير. جامع البيان عن تأويل آي القرآن. القاهرة: المطبعة الأميرية (بولاق)، 1321–1322هـ.



sahobalarga sharhlab, amaliy misollar bilan tushuntirib bergan. Bu holat tafsirning ilk shakli hisoblanadi. Masalan:

بِالنِّيَّاتِ وَالزُّبْرِ وَأَنْزَلْنَا إِلَيْكَ الذِّكْرَ لِتُبَيِّنَ لِلنَّاسِ مَا نُزِّلَ إِلَيْهِمْ وَلَعَلَّهُمْ يَتَفَكَّرُونَ

“Biz senga Zikrni (Qur’onni) nozil qildik, toki sen odamlarga ularga nozil qilingan narsani bayon qilib berishing uchun” (Nahl surasi, 44-oyat).

Ushbu oyat Payg‘ambar s.a.v.ning asosiy vazifalaridan biri Qur’onga izoh berish ekanini ochiq ko‘rsatadi. Ilk tafsir asarlari, jumladan, Ibn Jarir at-Tabariyning “جامع البيان عن تأويل آيات القرآن” “Jomi’ al-bayon an ta’vil il-Qur’on<sup>1</sup>” – “Qur’on oyatlarini sharhlash haqidagi mukammal bayon” nomli asari, asosan oyatning sababi nuzuli<sup>2</sup>, aqidaviy mazmuni, payg‘ambar s.a.v. va sahobalar rivoyatlariga tayanib yozilgan. Bu esa tafsir kommentariylarining ilk bosqichda diniy-aqidaviy vazifani bajarganini tasdiqlaydi.

Hadislar ham dastlab islom aqidalarini mustahkamlash va amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida rivoyat qilingan. Hadis matnlarining qisqa, mazmunan chuqur bo‘lishi ularga izoh yozish zaruratini keltirib chiqqargan. Jumladan,

إِنَّمَا الْأَعْمَالُ بِالنِّيَّاتِ – “Amallar niyatga bog‘liqdir” (Imom Buxoriy, Imom Muslim). Ushbu hadisga o‘z davrining yetuk ulamolari Ibn Hajar al-Asqaloniy “Fath al-Boriy” asarida va Imom Navaviy “Sharh Sahih Muslim” nomli asarlarida iymon va ixlos, niyatning aqidaviy ahamiyati kabi diniy jihatlarini sharhlaganlar. Bu sharhlar hadis kommentariylari ham avval diniy-ta’limiy maqsadda yuzaga kelganini ko‘rsatadi.

O‘z holida, Qur’on tafsirlari arba’inlar uchun nazariy manba ham bo‘lib xizmat qilgan. Mualliflar o‘z arba’inlarini yozish jarayonida o‘z muqaddimalaridagi ta’kidlariga ko‘ra, Qur’on, Hadis va tafsirlarga tayanganlar.

Adabiyotshunoslikda biror-bir asarga, yoki muallifga taqlid qilib, ularga ergashib, yoki ular g‘oyalarini davom ettirish maqsadida yozilgan asarlar mavjud bo‘lib, mana shunday asarlar turli lirik, epik va prozaik janrlarga asoslanadi. Ular xamsanavislik, tatabbu’, nazira,<sup>3</sup> taqlid asosida yoziladigan janrlarga kiritiladi. Diniy manbalarga esa taqlid qilinmaydi, balki ularda berilgan g‘oyalarga ergashiladi. Masalan, Gyotening “Zapadno-vostochniy divan”<sup>4</sup>, A.S.Pushkinning “Podrajaniya Koranu” she’rlar to‘plamlari shular qatoriga qo‘shiladi. Binobarin, Qur’on va hadislar ilohiy manbalar sifatida ham Sharq adabiyotining, ham G‘arb adabiyotining rivoji, an’analari va mualliflar ijodiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan

<sup>1</sup> «Жомиъ ал-баён» — хижрий III асрнинг охирида ёзилган, Қуръон тафсирида энг қадимий ва энг муътабар манбалардан биридир.

<sup>2</sup> Сабаби нузул (арабча: أسباب النزول) — Қуръон оятлари қайси воқеа, ҳолат ёки савол муносабати билан нозил бўлганини тушунтириб берувчи илмий тушунча.

<sup>3</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. 2 том. – Тошкент: Фан. 1977. – 460 б.; Адабий турлар ва жанрлар. 2 том. – Т.: Фан, 1992. – 247 б.

<sup>4</sup> Жабборов С. Гётенинг “Ғарбу Шарқ девони”. Манг. Талқин. Таржима. Филол.ф.д. дисс.автореферати. –Т.: 1995.



bo‘lib, jahonshumul ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, Qur‘on va hadislarida keltirilgan qadriyatlar silsilasi umuminsoniy qadriyatlar sifatida ham Sharq xalqlarini, ham G‘arb xalqlarini o‘ziga rom qilib, mana shu qadriyatlarning tan olingani timsolidir.

Biroq sharq adabiyotida taqlid asosidagi she‘rlar aniq bir janr orqali, ergashish asosidagi she‘rlar boshqa bir janr orqali ifoda qilingan. Masalan, besh doston an‘anasi asosida yaratiladigan “Xamsa” badiiy ergashish natijasida yaratiladi. Tatabbu‘ janri ham shakl, ham mazmun ergashishi sanaladi. Badiiy adabiyot muqaddas manbalarda berilgan fikr va qarashlarga ham ergashishi mumkin. Biroq mana shunday ergashish holati biror-bir aniq janr orqali emas, balki erkin holda tanlangan nazm va yoki nasrda, mustaqil tanlangan janrlarda bo‘lishi mumkin.

Masalan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”<sup>1</sup> va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”<sup>2</sup> asarlarida ikki tomonlama ergashish mavjud. Mazkur manbalarning har biri islom manbalariga ergashish natijasi bo‘lsa, Alisher Navoiy dostoni Farididdin Attorga ergashib, unga javoban yozilgandir. Binobarin, bizning fikrimizga ko‘ra, Qur‘on oyatlari va hadislariga ergashish, yoki ularga taqlid qilish ikki tipda amalga oshiriladi:

a) bevosita muqaddas manbalarning o‘zigagina tayanib, ulardagi g‘oyalardan ruhlanib, mustaqil asar yaratish;

b) diniy asarlar mazmuni aks etgan badiiy asarlarga tayanib, mustaqil asar yaratish.

Diniy adabiyot, ayniqsa muqaddas manbalarda bildirilgan fikr, qarash va g‘oyalarga ergashish, binobarin, ikki shakl ko‘rinishida mavjud bo‘ladi.

Biri, muqaddas manbalarni sof diniy yo‘nalishda tushuntirish, ikkinchisi – muqaddas manbalarni sof adabiy yo‘nalishda tushuntirishdir.

“Arba‘in” asarlari – Islom ulamolari tomonidan tuzilgan qirq hadis to‘plamlari bo‘lib, asosiy maqsadlari ummatni ilmga rag‘batlantirish va sunnatni yodlashni rag‘batlantirishdan iborat bo‘lgan. Imom Navaviyning mashhur “Al-Arba‘in an-Navaviy”si shu turdagi eng mu‘tabar asarlardan hisoblanadi. Asarning asosiy xususiyati shundaki, hadislar tanlanishda uning ilmiy va axloqiy ahamiyatga ega ekanligi, ummatni imon, amal va ilmga rag‘batlantirishga e‘tibor qaratilgan.

Qur‘on va Hadislarda ma‘lum bir va aniq belgilangan diniy-islomiy axborot mujassamlantirilgan bo‘ladi. Mazkur axborotning tarixiy va teologik mazmuni bo‘ladi. Arba‘inlarda aynan mana shu aniq belgilangan mazmun yangi poetik shaklda qayta gavdalantiriladi. Qayta gavdalantirish jarayoni muallifning poetik mahorati, uning badiiy dunyoqarashi, bilimdonligi, axborotning qaysi qirralariga e‘tibor qaratishi kabi jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. Muallifning qaysi axborotni

<sup>1</sup> Шайх Фаридуддин Аттор. Мантикут тайр. – Тошкент: Фан. 2006. – 398 б.

<sup>2</sup> Аlisher Navoiy. Lisonut tayr. – Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт – матбаа бирлашмаси. 1991. – 462 б.



tanlashi uning ijodkor sifatidagi mustaqilligini belgilab beradi. Mazkur o‘rinda aynan axborot talqin qilinadi. Shakl va talqin jarayonida muallif o‘zini erkin xis qiladi. Biroq talqin mazmuni aniq belgilangan diniy axborot asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiy o‘zining “Chihil hadis” asarida hadislarni nazmda sharhlaydi.

Hadis.

دم على الطهارة يوسع عليك الرزق

Ya’ni, doim pokiza yurgin, rizqi ro‘zing oshadi, - degan hadis Jomiy she’riy talqinida quyidagicha sharhlanadi:

ای کز آله کئی تو شب و روز  
فاقه و فقر تو زیاده شود  
بی طهارت مباش تا بر تو  
روزی تنگ تو گشاده شود

(ya’ni, Ey sen, pokiza emasligingdan har kunu tun sening notavonliging ortib (oshib) boradi. Betahoratsiz bo‘limginki, sening mushkullaring eshigi ochiladi, ro‘zg‘orning qiyinchiligi yo‘qoladi.)

Qur’on oyatlari va Hadislarda keltirilgan ba’zi axborotlar diniy istilohlar, tushunilishi qiyin bo‘lgan jumladan, tarixiy hodisalar talqini asosida bo‘lishi mumkin. Mana shunday o‘rinlarda diniy axborotga aynan poetik tarzda izoh beriladi.

Shuningdek, quyidagi hadisni Navoiy shunday tushuntiradi:

اطلبوا الخير عند حسان الوجوه

(tarj: Yaxshilikni ochiq yuzlilardan izla.)

Alisher Navoiyda:

Eyki, har ishta hojating bo‘lsa,  
Yaxshi yuzlugdin ista baxshoyish.  
To-ki baxshoyishidin avvalroq  
Ko‘rmagidan yetushgay osoyish.

(ey, agar biror ishga ehtiyojning bo‘lsa, yaxshi yuzlilardan marhamat kutgin (ista). Toki marhamatidan avval uni ko‘rishning o‘zidan rohatlanasan).

Ba’zi o‘rinlarda diniy axborot va manbalarda belgilangan voqea va hodisani oddiy tarzda tushuntirib berishning iloji bo‘lmaydi. Chunki u ma’lum bir tarixiy faktlar, afsonalar, yoki hodisalar bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘ladi. Mana shu o‘rinlarda mualliflar mazmunni chuqurlashtirib bayon etish yo‘lidan borishadi Bunday hollarda nasr bilan nazm qo‘shilib keladi. Nasriy matnda voqealar bayon qilinsa, nazmiy matnda mana shu voqeadan inson qalbida vujudga kelgan xissiyotlar tahlili beriladi.

Qur’on oyatlari va Hadislarda ma’lum bir holat va vaziyatlar bo‘yicha tegishli xulosalar berilgan bo‘lishi mumkin. Ana shu axborotlarni shoir o‘z dunyoqarashi,



diniy mistik qarashlari, poetik tafakkuri asosida rivojlantirib, g'oyalarni yanada emotsional, yanada ulug'vor, yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun IX asrning oxirlari – XX asrning boshlarida yashab ijod etgan Qo'qon adabiy muhitining iste'dodli shoirlaridan Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir o'zining "Chihil hadis" asarida quyidagi hadisni shunday talqin etadi:

لَا يَدْخُلُ الْجَنَّةَ مَنْ كَانَ فِي قَلْبِهِ مِثْقَالُ ذَرَّةٍ مِنْ كِبَرٍ

Tarjimasi: "Qalbida zarracha kibr bor odam jannatga kirmaydi".

Muhayyir

Boqma mo'minlarga haqorat ila

Ki, behisht ichra qilmagay manzil

Har musulmonki, anga olam aro

Bo'lsa bir zarra kibrlig ko'ngul.

(ya'ni, mo'min mo'minlarga haqorat va bepisandlik qilmaydi, agar shunday qilsa oliy maqom jannat unga nasib qilmaydi. Bu dunyoda qalbida zarracha kibri bo'lgan har bir musulmonga jannat nasib etmaydi).

Qur'on oyatlari va Hadislarda ma'lum diniy axborot mujassam bo'ladi. Ularni oddiy axborot sifatida uzatish mumkin. Shu bilan birga ularni obrazlilik asosida uzatish mumkin. Obrazli til badiiy tafakkur asosida shakllantiriladi. Shoirlar, yozuvchilar ana shu obrazli va badiiy tilning ustasi sanaladi. Shu bois, arba'inlarda oddiy informatsiya badiiy boyitilgan tarzda o'quvchiga uzatiladi. Shoirning maqsadi ham nutqni ta'sirchan qilish orqali bosh maqsadga, ya'ni dinni chiroyli, ta'sirchan va turg'un tarzda targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Hadisi Usfuriydan:

29 - Hadis

Ibn Asvad Diliy roziyallohu anhu Hazrat Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Payg'ambar alayhis-salom aytdilar:

قَالَ النَّبِيُّ عَلَيْهِ السَّلَامُ: مَا مِنْ رَجُلٍ يَمُوتُ فَيَشْهَدُ لَهُ ثَلَاثَةٌ رَجَالٍ إِلَّا وَجِبَتْ لَهُ الْجَنَّةُ.

فَقُلْتُ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، وَإِنْ شَهِدَ اثْنَانِ؟ قَالَ: نَعَمْ.

وَلَمْ يَسْأَلْ عَنِ الْوَاحِدِ

"Biror odam vafot qilsa va uchta kishi uning yaxshi odam bo'lganiga guvohlik bersa, albatta, u jannatga kiradi."

Men so'radim:

–Ey Rasululloh, agar ikki kishi guvohlik bersa-chi?

U zot aytdilar:

–Ha (ikki kishi guvohlik bersa ham jannatga kiradi).

Bitta kishi guvohlik haqida so'ralmadi"

Hikoya

Hazrat Abdulaziz ibn Suhayb roziyallohu anhu, Hazrat Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar:



Payg‘ambar alayhis-salom va bir necha sahobalar yo‘lda ketib borayotgan edilar. Shu payt yo‘lda bir odamning janozasini odamlar ko‘tarib kelayotganiga duch kelishdi. Ularning ba‘zilari: “Bechora yaxshi odam edi”, — deb afsuslanib, uning ustidan yaxshi gapirib o‘tishdi. Payg‘ambar alayhis-salom: “Albatta (uning uchun) jannat vojib bo‘ldi”, — dedilar.

Keyinroq yana bir guruh odamlar boshqa bir murdani ko‘tarib o‘tishdi. Odamlarning ba‘zilari o‘sha murda haqida yomon gap qilib, shikoyat qila boshladilar. Payg‘ambar alayhis-salom: “Albatta (unga) do‘zax vojib bo‘ldi”, — dedilar.

Hazrat Umar roziyallohu anhu so‘radilar:

–Ey Rasululloh, nima vojib bo‘ldi?

Payg‘ambar alayhis-salom dedilar:

–Ey Umar, avvalgi murdaning ortidan odamlar “bu yaxshi odam edi” deb guvohlik berib o‘tishdi. Shuning uchun u murdaga jannat vojib bo‘ldi. Keyingi murda haqida esa odamlar “u yomon edi” deb guvohlik berishdi. Shuning uchun unga do‘zax vojib bo‘ldi.

Yana Payg‘ambar alayhis-salom aytdilar:

–Ey Umar, sizlar yer yuzida Alloh taoloning guvohlarisiz. Alloh taolo bandalarga jazo berishda sizlarning guvohligingizni ham sabab bo‘ladi.

Qur‘on va Hadislarda murakkab diniy tushuncha talqin qilingan bo‘lishi mumkin. Mana shu murakkablik anglashga qiyinlik tug‘dirishi mumkin. Shu bois, arba‘inlarda insonlar hayotida uchrab turuvchi voqealar, rivoyatlar, afsonalar asosida belgilangna murakkab mavzu tushuntirilishi mumkin.

Din har vaqt o‘zining kriteriyalari va normalariga ega bo‘ladi. Mana nu normalar albatta bajarilishi qat‘iy belgilangan bo‘ladi. Masalan, tahorat, ro‘za, xaj, zakot v.b. Ularni nazariy tushuntirish bu diniy ilmlarning vazifasidir. Ularni badiiy tarzda amaliy va soddlashitrib tushuntirish arba‘in kabi diniy-adabiy janrlarning vazifasidir.

Quyidagi hadisni Jomiy shunday talqin qiladi:

دم على الطهارة يوسع عليك الرزق

Doim pokiza yurgin, rizqi ro‘zing oshadi.

ای کز آله کی توشب و روز  
فاقه و فقر توزیاده شود  
بی طهارت میباش تا بر تو  
روزی تنگ تو گشاده شود

(ya‘ni, Ey sen, pokiza emasligingdan har kunu tun sening notavonliging ortib (oshib) boradi. Betahoratsiz bo‘lmaginki, sening mushkullaring eshigi ochiladi, ro‘zg‘orning qiyinchiligi yo‘qoladi.)

Binobarin, arba‘inning adabiy janr sifatida bajaradigan ma‘naviy va ma‘rifiy vazifalari ko‘lami jihatidan uning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Avvalo, mazkur



masala arba'inning belgilangan tarannum etish darkor bo'lgan g'oyalari va insonparvarlik tamoyillari bilan belgilanadi. Ularning ikkalasi ham Alloh, e'tiqod, Allohni tanish, Alloh sifatleri, takbir, imon va imon ruknlari, Alloh bandasidan istagan gumanistik g'oyalar bilan chatishib ketadi. Shunga ko'ra, arba'in vazifalari ichida muallif tarannum etmoqchi bo'lgan g'oyalar aslida islom ta'limoti ichida tayyor holda mavjud bo'ladi. Muallif ana shularning ichidan o'z psixoemotsional halotiga mos bo'lgan g'oyalarni tanlab oladi va poetik bo'yoqlarga burkatib, tarannum etadi. Binobarin, muallif bir tomondan azaldan mavjud tamoyillar asosida ish ko'radi, ikkinchi tomondan esa, o'z poetik tafakkuri asosida mana shu azaldan mavjud g'oyalarni o'zgacha shakl va o'zgacha poetik ruhda shakllantiradi.

Demak, tafsir, hadis va arba'in an'analarini manbalar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, islom dini tarixi va Qur'on kitobati jarayoni bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan kommentariy yozish amaliyoti avvalo diniy-aqidaviy va targ'ibiy vazifani bajargan. Keyinchalika mazkur kommentariylar ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashib, fiqhiy, kalomiy va falsafiy shakllarga ega bo'lgan.

Hadis to'plamlarida har bir hadis manbai va rivoyati bilan birga keltiriladi. Targ'ibot yo'nalishidagi hadislar ummatni axloq, ibodat va ilmga rag'batlantirishda qo'llaniladi. Fazoilul-a'mol nuqtai nazaridan, asar zamonaviy ilmiy tahlillarda ham qimmatli hisoblanadi.

"Arba'in" asarlar muhaddis olimlardan Abdulloh ibn Abbas, Ibn Mas'ud, Muoz ibn Jabal, Abu Dardo, Ans ibn Malik, Abu Hurayra rivoyatlari orqali turli yo'llar bilan kelgan. Ular ilmni yodlash va ummatga foyda keltirishda asosiy manba hisoblanadi.

Keyinchalik bu hadislariga sharhlar yozilgan. Ulardan Ibn Daqiq al-Iyd, Suyutiy hadislarini falsafiy yoki nazariy tomondan sharhlamagan balki, e'tiqodni mustahkamlashda dinni sodda va ta'sirli yetkazish maqsadida hadislariga sharhlar yozgan.

Ularda tazkira, tabaqot, tarojim kabi asarlardan farqli o'laroq, Qur'on oyatlari va Hadislar mazmuni mualliflar, ya'ni shoir va yozuvchilarning ijodiy g'oyasi-maqsadiga bo'ysundirilgani holda islom dini muqaddas manbalarining ma'nomohiyatini tasvirlashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Arba'in mustaqil adabiy janr bo'lib, uning evolyusiyasi arab adabiyoti zamirida vujudga kelgan. Arablarda arba'in Qur'on oyatlari va Hadislar sharhi darajasida qo'llanilgan. Biroq fors-tojiq va turkiy adabiyot negizidagina arba'in poetik asar sifatida shakllantirilgan.

Arba'inlar nasr va nazmda yozilgan bo'lib, ko'plab Qur'on oyatlari va hadislar mazmunini o'z ichiga oldi. Arba'inlarda bayon etilayotgan nazariy materialni dalillash uchun ko'plab hikoyat, rivoyat, naqlar keltirildiki, ular nazariy



masalalarning misollar vositasida kitobxon xotirasida saqlanib qolishiga imkoniyat yaratdi.

Arba'indagi hadislarining roviylari albatta bayon etiladi. Uning ishonchliligiga urg'u beriladi.

Arba'in mualliflari o'z arba'inlarini yaratishdan oldin, o'zlaridan oldin arba'in yaratganlar haqida ma'lumot berib o'tadilar.

Shunday qilib, arba'in an'anasi maxsus mazmun va shaklga ega bo'lgan lirik janr bo'lib, uning diniy-ma'naviy va axloqiy-ma'rifiy ahamiyati juda katta bo'lgan. Ar'bain yo'nalishida barcha daho va mutafakkir shoirlar ijod qilganlar. Ular o'z arba'inlarida nafaqat islom aqoidlari va islom ma'naviyatini targ'ib qilib, shu bilan bir qatorda o'zlarining dunyo, borliq va Yaratgan borasidagi qarashlarini ham tarannum etganlar.

#### FAYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Бакр ибн Муҳаммад. Ҳадиси Усфурий – Т.: Адабиёт ва санъат 1993. – 107 б.
2. Алишер Навоий – Асарлар. Ўн беш томлик. 15-том. – Т.: 1968.
3. ARAYANA Vol. XXIV, 1-2, Jan-Feb. Kabul. P. 1996.
4. Деҳқонов А. “Муҳаййир таржима қилган “Қирқ ҳадис” / Республика ёш адабиётшуносларнинг анъанавий илмий конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1993. -Б. 39-40.
5. Ҳадис ва Ҳаёт. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. 1-жуз. Шарқ, Тошкент, 2003. – 158 б.
6. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. –Т.: Шарқ, 1998. – 160 б.
7. Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсифи. Таржима ва тафсиф муаллифи Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети, 2004. – 624 б.
8. البخاري، محمد بن إسماعيل. الجامع الصحيح، تحقيق: مصطفى ديب البغا. بيروت: دار ابن كثير، 1987م.
9. مسلم بن الحجاج النيسابوري. صحيح مسلم، تحقيق: محمد فؤاد عبد الباقي. الرياض: دار السلام، دت.
10. البخاري، محمد بن إسماعيل. الجامع الصحيح. بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1991م.
11. ابن ماجه، محمد بن يزيد القزويني. سنن ابن ماجه، تحقيق: محمد فؤاد عبد الباقي. بيروت: دار الفكر، 1995م